



*Nargiza ASADULLAYEVA,*  
*Sarbo'n universiteti o'qituvchisi*  
*E-mail:asadullayevanargiza5@gmail.com*

*O'zMPU professor v.b. D.Abduvaliyeva taqrizi asosida*

## ESSENTIAL CONTENT AND CONCEPTUAL BASIS OF DEVELOPING STUDENTS' INDEPENDENT WORK COMPETENCE

Annotation

This article analyzes the essence and conceptual foundations of developing students' independent learning competence based on a competency-based approach from theoretical and empirical perspectives. The study identifies the role of the competency-based approach in the education system, the structural components of independent learning competence, and effective mechanisms for its development. Based on experimental research results, the dynamics of students' independent learning competence development were determined and analyzed using diagrams.

**Keywords:** competency-based approach, independent learning competence, self-directed learning, higher education, professional competence.

## ОСНОВНЫЕ СОДЕРЖАНИЕ И КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ

Аннотация

В статье рассматриваются сущность и концептуальные основы развития компетенции самостоятельной работы студентов на основе компетентного подхода с теоретической и эмпирической точек зрения. В ходе исследования определены роль компетентного подхода в системе образования, структурные компоненты компетенции самостоятельной работы и механизмы её формирования.

**Ключевые слова:** компетентный подход, компетенция самостоятельной работы, самостоятельное обучение, высшее образование, профессиональная компетентность.

## TALABALARNING MUSTAQIL ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING MOHIYAT MAZMUNI VA KONSEPTUAL ASOSLARI

Аннотация

Mazkur maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirishning mazmun-mohiyati va konseptual asoslari ilmiy-nazariy hamda empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning ta'lim tizimidagi o'rni, mustaqil ishlash kompetensiyasining tarkibiy komponentlari va uni rivojlantirish mexanizmlari aniqlashtirildi. Tajriba-sinov ishlari natijalari asosida talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyasining rivojlanish dinamikasi aniqlanib, olingan ma'lumotlar diagrammalar orqali tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** kompetensiyaviy yondashuv, mustaqil ishlash kompetensiyasi, mustaqil ta'lim, oliy ta'lim, kasbiy kompetensiya.

**Kirish.** Hozirgi globallashuv sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari, raqamli texnologiyalarning ta'lim sohasiga keng joriy etilishi hamda ilm-fan va innovatsiyalarning tez sur'atlarda taraqqiy etishi oliy ta'lim tizimida mutaxassislar tayyorlash mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni qayta ko'rib chiqishni taqazo etmoqda. Mazkur sharoitda an'anaviy bilimga yo'naltirilgan ta'lim modeli o'zining cheklanganligini namoyon etib, ta'lim jarayonini natijaga yo'naltirishga asoslangan kompetensiyaviy yondashuv ta'lim natijasi bilimlar majmui bilan emas, balki bilim, ko'nikma, malaka, shaxsiy sifatlar va ijtimoiy tajribaning integratsiyasialashgan tizimi sifatida talqin etadi. Ushbu yondashuv doirasida talabanning mustaqil ishlash kompetensiyasi alohida ahamiyat kasb etib, u shaxsning o'quv va kasbiy faoliyatini ongli ravishda rejalashtirish, axborotni tanqidiy tahlil qilish, mustaqil bilim olish, o'z faoliyatini baholash va refleksiya qilish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Xalqaro ta'lim tadqiqotlarida mustaqil ishlash kompetensiyasi zamonaviy mutaxassisning asosiy universal kompetensiyalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy

asoslar, xususan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, davlat ta'lim standartlari hamda ta'limni rivojlantirishga doir strategik hujjatlarda talabalarda mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini kasbiy jihatdan rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirish muhim ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilgan. Biroq pedagogik amaliyot natijalari oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim faoliyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish mexanizmlarining yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi, talabalarda mustaqil ishlash kompetensiyasining aksariyat hollarida epizodik va fragmentar tarzda shakllanayotganligini ko'rsatmoqda. Mazkur holat kompetensiyaviy yondashuv doirasida mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirishning mazmun-mohiyatini, uning strukturaviy komponentlarini hamda konseptual-metodologik asoslarini chuqur ilmiy-nazariy tahlil etish zaruratini dolzarb ilmiy muammo sifatida kun tartibiga qo'yimoqda. Yetuk xorijiy va mahalliy olimlarning (A.V.Xutorskoy, I.A.Zimnyaya, J.Raven, N.A.Muslimov va boshqalar) ilmiy qarashlariga tayangan holda mustaqil ishlash kompetensiyasini zamonaviy ta'lim paradigmasi nuqtai nazaridan qayta talqin qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

Shu bois bilan mazkur maqolaning maqsadi kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslarini ilmiy tahlil qilish, yetuk olimlarning nazariy qarashlariga tayangan holda ushbu kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasini asoslab berish hamda oliy ta'lim jarayonida uni samarali rivojlantirishning ilmiy-pedagogik yo'llarini yoritib berishdan iborat.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Zamonaviy pedagogika va ta'lim nazariyasida mustaqil ta'lim (self-directed learning, independent learning) shaxsning uzluksiz rivojlanishini ta'minlovchi muhim kompetensiyalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur tushuncha kompetensiyaviy yondashuv doirasida talabalarning bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, o'z o'quv faoliyatini rejalashtirish, boshqarish, monitoring qilish hamda natijalarni baholash qobiliyatlarini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Mustaqil ta'lim nazariyasining shakllanishi va rivojlanishida amerikalik olim M.Knowles tomonidan ishlab chiqilgan andragogika konsepsiyasi muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Knowles ta'lim oluvchi faol subyektlar sifatida qarab, murtaq ta'limni shaxsiy va kasbiy rivojlanishning muhim omili sifatida asoslaydi.

Mustaqil ta'lim muammosini chuqur tadqiq etgan olimlardan biri P. Candy bo'lib, u mazkur jarayonni shaxsning avtonomligi, mas'uliyati hamda refleksiv fikrlashiga tayanadigan murakkab pedagogik hodisa sifatida izohlaydi. Uning ta'kidlashicha, mustaqil ta'lim kompetensiyasi maxsus pedagogik shart-sharoitlar asosida shakllantiriladi va uzluksiz ta'lim (lifelong learning) konsepsiyasining metodologik moydevorini tashkil etadi.

Mustaqil ta'lim masalalarini tadqiq etishda B.Zimmermanning o'z-o'zini boshqariladigan ta'lim (self-regulated learning) nazariyasi alohida o'rin egallaydi. Mazkur nazariyada mustaqil ta'lim rejalashtirish, monitoring va refleksiya bosqichlaridan iborat dinamik jarayon sifatida qaraladi. Zimmerman ta'lim oluvchilarning metakognitiv ko'nikmalari mustaqil ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Yevropa pedagogik tafakkurida J.Dewey tomonidan ilgari surilgan faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim g'oyalari mustaqil ta'lim konsepsiyasining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Dewey ta'lim jarayonida talabaning mustaqil tajriba orttirishi, muammoli vaziyatlarni hal etish orqali bilimlarni egallashi ta'lim samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi. Ushbu g'oyalar keyinchalik kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslariga singdirilgan.

Kompetensiyaviy yondashuv va mustaqil ta'lim muammolarini ilmiy asoslagan rus olimlari A.V.Xutorskoy va I.A.Zimnyaya mustaqil ta'limni shaxsning umumta'limiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali mexanizmi sifatida baholaydilar. Xutorskoy mustaqil faoliyatni tayanch kompetensiyalarning muhim tarkibiy elementi sifatida talqin qilsa, Zimnyaya mustaqil ta'limni shaxsning ichki motivatsiyasi va refleksiv faoliyati bilan bog'liq pedagogik jarayon sifatida izohlaydi.

Mahalliy olimlar N.A.Muslimov, B.X.Raximov, U.Q.Tolipov va Sh.Q.Mardonovlarning ilmiy izlanishlarida mustaqil ta'lim masalasi kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan keng yoritilgan bo'lib, ularda mustaqil ishlash kompetensiyasi talabaning kasbiy tayyorgarligi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Xususan, N.A.Muslimov mustaqil ta'limni kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy sharti sifatida baholaydi.

Ilmiy manbalar tahlili natijalari mustaqil ta'lim kompetensiyasi kognitiv, operatsion-faoliyat, motivatsion

hamda refleksiv komponentlarning o'zaro uyg'unlashgan tizimidan tarkib topishini ko'rsatadi.

Xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'lim kompetensiyasi kompetensiyaviy yondashuvning markaziy tarkibiy elementi bo'lib, uning shakllantirilishi zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor strategik vazifalaridan biridir. 2006 yilda Yevropa Parlament va Kengashi uzluksiz ta'lim doirasida 8 ta asosiy tayanch kompetensiyani belgiladi: ona tilida muloqot qilish, chet tilida muloqot qilish, matematik va fan-texnika kompetensiyalari, raqamli kompetentlik, o'qishni o'rganish ko'nikmalari, ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyalari, tadbirkorlik va tashabbuskorlik qobiliyati hamda madaniy ong va uni ifodalash ko'nikmalari. Yevropa tajribasiga tayangan holda, O'zbekiston ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, shakllantiriladigan kompetensiyalarni tizimli ravishda tanlash va integratsiyalash orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish mumkin. Shu bilan birga, kompetentlik nafaqat bilim darajasi bilan chegaralanib qolmay, balki ob'yektning mohiyatini realligini anglash va uning nazariy jihatlarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyat sifatida talqin etiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida talabalarda mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan mustaqil ta'limning ta'siri empirik usullar orqali o'rganildi. Tajribasining ishlari oliy ta'lim muassasasi talabalari ishtirokida amalga oshirilib, mustaqil ishlash kompetensiyasining boshlang'ich va yakuniy darajalari aniqlanib, olingan natijalar solishtirildi. Boshlang'ich diagnostika natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyasi asosan o'rta darajada shakllangan.


**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarda axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish, o'quv faoliyatini rejalashtirish, vaqtni samarali boshqarish hamda refleksiya qilish ko'nikmalari yetarli darajada tizimli shakllanmagan. Bu holat talabalarning mustaqil ta'limga tayyorgarligi past ekanligini ko'rsatib, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish zaruratini tasdiqlaydi. Tajriba jarayonida mustaqil ta'lim kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik sharoitlar yaratildi. Jumladan, mustaqil ishlar kompetensiyalar asosida loyihalandi, amalmoli topshiriqlar va loyihaviy faoliyatdan foydalanildi, raqamli ta'lim resurslari tatbiq etildi hamda refleksiv topshiriqlar tizimli ravishda qo'llanildi.

Ushbu yondashuv talabalarning o'quv faoliyatidagi faolligini oshirishga xizmat qildi. Yakuniy nazorat natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhidagi talabalarda mustaqil ishlash kompetensiyasining barcha tarkibiy komponentlarida ijobiy o'sish kuzatildi. Xususan, kognitiv komponent (bilimlarni mustaqil egallash va tahlil qilish), operatsion-faoliyat komponenti (rejalashtirish va vazifalarni mustaqil bajarish) hamda refleksiv komponent (o'z faoliyatini baholash va xulosalar chiqarish)da sezilarli siljishlar qayd etildi. Grafik va diagrammalar asosida tahlil qilinganda, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan mustaqil ta'lim jarayoni an'anaviy yondashuvga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi.


Olingan natijalar xorijiy olimlar M.Knowles, B.Zimmerman va P.Candy tomonidan ilgari surilgan mustaqil ta'lim va o'z-o'zini boshqariladigan ta'lim nazariyalari bilan uyg'unlik kasb etadi. Xususan, talabalarning o'quv faoliyatini mustaqil rejalashtirish va refleksiya qilish ko'nikmalarining rivojlanishi Zimmerman ta'kidlagan o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarining samarali ishlayotganini tasdiqlaydi. Shuningdek, Knowlesning andragogik yondashuvida ta'lim oluvchining faol subyektlar sifatida ta'lim jarayonida ishtirok etishi alohida e'tibor markazida turadi. Unga ko'ra, o'quvchi

passiv qabul qiluvchi emas, balki o'z ta'lim ehtiyojlarini aniqlash, maqsadlarini belgilash, o'quv strategiyalarini tanlash va natijalarni baholash jarayonida faol rol o'ynaydigan mustaqil

subyekt sifatida qaraladi. Knowlesning andragogik yondashuvi prinsiplariga muvofiq, talabning faolligi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini sezilarli darajada rivojlantiradi.



Mahalliy olimlar (N.A.Muslimov, B.X.Raximov va boshqalar) tadqiqotlarida mustaqil ishlash kompetensiyasining kasbiy tayyorgarlikdagi o'rni alohida ta'kidlangan bo'lsa, ushbu tadqiqot natijalari ham mustaqil ta'lim kompetensiyasi talabalarining kelgusidagi kasbiy faoliyatga tayyorligini oshirishini ko'rsatdi. Tajriba davomida talabalarda mas'uliyat hissi, mustaqil qaror qabul qilish va muammoli vaziyatlarda yechim topish qobiliyatlarining shakllanib borishi kuzatildi.



**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot natijalari mustaqil ishlash kompetensiyasining rivojlanish dinamikasini aniq ko'rsatdi. Grafikda kuzatilishicha, mustaqil ishlash kompetensiyasining past darajadagi talabalar ulushi tadqiqot boshida yuqori bo'lishiga qaramay, yakuniy bosqichda sezilarli darajada kamaygan (42% dan 18% ga). Shu bilan birga, o'rtacha darajadagi talabalar ulushi biroz pasaygan bo'lsa-da, barqarorlikni saqlab qolgan (38% dan 32% ga). Eng muhimi, yuqori darajadagi mustaqil ishlash kompetensiyasiga ega talabalar ulushi tadqiqot davomida ancha oshgan (20% dan 50% ga). Bu esa kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan mustaqil ta'lim jarayonining talabalar orasida mustaqil ishlash ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qilayotganligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, natijalar va ularning tahlili kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan mustaqil ta'lim jarayoni talabalarining mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda samarali pedagogik mexanizm ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur yondashuvni oliy ta'lim muassasalarida tizimli ravishda tatbiq etish ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh, o'z-o'zini rivojlantira oladigan mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

Natijalar shuni isbotladiki, pedagogik sharoitlar va metodik yondashuvlar to'g'ri yo'lga qo'yilganda, talabalar mustaqil ishlashning yuqori darajasiga erishadi, bu esa ularning kasbiy tayyorgarligi va ta'lim sifatining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, kompetensiyaviy yondashuvni oliy ta'lim muassasalarida tizimli joriy etish va mustaqil ta'limni rivojlantirish uchun yangi pedagogik usullarni ishlab chiqish zarur.

Tadqiqot natijalari xorijiy va mahalliy olimlar – M.Knowles, B. Zimmerman, A.V.Xutorskoy, I.A.Zimnyaya, N.A.Muslimov va boshqalar – tomonidan ilgari surilgan mustaqil ta'lim va kompetensiyaviy yondashuv nazariyalari bilan uyg'unligini tasdiqlaydi. Bu holat mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining pedagogik jihatdan asoslanganini va ilmiy-nazariy nuqtai nazardan to'g'ri tashkil etilganligini ko'rsatadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni kompetensiyaviy asosda tashkil etish, mustaqil ishlarni baholash mezonlarini takomillashtirish va raqamli ta'lim resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi. Ushbu yondashuvni ta'lim amaliyotiga keng joriy etish raqobatbardosh, o'z-o'zini rivojlantira oladigan va kasbiy faoliyatga tayyor mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

Kelgusida mustaqil ishlash kompetensiyasini fanlar kesimidagi xususiyatlari, raqamli ta'lim texnologiyalari asosida mustaqil ta'limning innovatsion modellari va baholashning raqamli mexanizmlarini ishlab chiqishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiqdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Barakayevich, K. S. (2020). Improvement of Vocational Training of Pupils in Secondary Schools. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(1).
2. Qorayev, S. (2016). Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. "Education, Science and Innovation," 2 (2), 45-50.
3. Қораев, С. (2016). Фанлараро узвийлик ва узаро алоқани таъминлашнинг ўзига хос хусусиятлари. "Таълим, фан ва инновация", 2(2), 45- 50.
4. Elmurzaeva, N. K., & Qorayev, S. B. (2021). Pedagogical Requirements for the Organization of the Educational Process in Specialized State Educational Institutions. *Psychology and Education Journal*, 58(1), 1078-1084.
5. Қораев, С. Б. (2020). Профессионал таълимда ўқув амалиётларини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (3), 1281-1286.
6. Barakayevich, Q. S., & Baxtiyorovna, A. S. (2021). Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta'lim muhitini yaratish. *Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal*, 1(02), 132-137.
7. Adbujalilova, S. A., & Koraev, S. B. (2020). Talabalar ilmiy dunёkarashini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ўрни. *Academic research in educational sciences*, (4).
8. Караев, С. Б. (2018). Современные пути совершенствования учебнопроизводственных комплексов, специализированных на профессиональной подготовке учащихся. In *Психология и педагогика на современном этапе* (pp. 30-36).

9. Қораев, С. Б., & Жолдасов, И. С. (2021). Касб-хунар мактаблари фаолиятини амалий машғулотлар самарадорлигини ошириш орқали такомиллаштириш масалалари. *Academic research in educational sciences*, 2(2).
10. Tilakova, M., & Qoraev, S. (2020). Recommendations for students 'creative ability development. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (4), 184-189.
11. Abdujalilova, S. A., & Qorayev, S. B. (2020). The Role Of Pedagogical Technologies In The Formation Of Students' Scientific Outlook. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(03), 2020.
12. Тилакова, М., & Қораев, С. (2020). Ўқувчилар креативлик қобилиятларини ривожлантириш бўйича тавсиялар. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (4), 184-189.
13. Қораев, С. Б. (2016). Фанларни ўқитишда табақалаштирилган таълим технологиясини жорий этиш масалалари. *Таълим технологиялари*, 2, 45-50
14. Qorayev, S. B., & Janbayeva, M. S. (2021). Boshlang'ich sinf o'qish darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. *academic research in educational sciences*, 2(4), 149-153.
15. Qorayev, S. B., & Allayorova, S. B. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarini pirls xalqaro baholash dasturi tizimiga taayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalari. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 443-448.
16. Қораев, С. Б. (2018). Умумий ўрта таълим муассасаларида ўқув-ишлаб чиқариш мажмуаларини ташкил этишнинг долзарблиги. *Таълим, фан ва инновация* , 4, 28-31.